



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI



**SIRDARYO VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
HUDUDIY MARKAZI**

**PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISH TIZIMIGA  
INNOVATSION YONDASHUV: XALQARO TAJRIBALAR VA  
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**  
**xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya**

**2022-YIL 6-7-APREL**

**INNOVATIVE APPROACH TO THE SYSTEM OF TEACHER  
TRAINING: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND FUTURE  
STRATEGIES**

**International scientific-practical conference**

**APRIL 6-7, 2022**

**ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД В СИСТЕМЕ  
ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ ПЕДАГОГОВ:  
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И  
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ**

**Международная научно-практическая онлайн конференция**

**6-7 АПРЕЛЯ 2022 ГОД**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SIRDARYO VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI**

**PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISH TIZIMIGA  
INNOVATSION YONDASHUV: XALQARO TAJRIBALAR VA  
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI  
2022-YIL  
6-7-APREL**

**ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД В СИСТЕМЕ ПОВЫШЕНИЯ  
КВАЛИФИКАЦИИ ПЕДАГОГОВ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И  
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ**

**Международная научно-практическая онлайн конференция  
2022 год  
6-7-апреля**

**INNOVATIVE APPROACH IN THE SYSTEM OF ADVANCED  
TRAINING FOR TEACHERS: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND  
DEVELOPMENT PROSPECTS**

**APRIL 6-7, 2022**

Pedagoglar malakasini oshirish tizimiga innovatsion yondashuv: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Guliston, Sirdaryo viloyat XTXQTMONM.

Ushbu konferensiya to‘plamida Sirdaryo viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi tomonidan tashkil etilgan — “Pedagoglar malakasini oshirish tizimiga innovatsion yondashuv: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumaniga kelib tushgan tezis va maqolalar o‘rin olgan. Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda pedagoglar malakasini oshirish, ta’lim samaradorligini oshirishga doir xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarni to‘plash, tajribalarni o‘rganish, aniqlash va ommalashtirish, ta’lim samaradorligini ta’minlashda life-long learning – hayot davomida o‘qish tamoyilining o‘rni, o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ta’lim bosqichlari uzviyligini ta’minlashda masofaviy ta’lim sifatini tubdan oshirish va takomillashtirishga oid xorijiy tajribalar bo‘yicha to‘plangan materiallar joy olgan. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, umumta’lim maktab o‘qituvchilari, barcha tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

*Mas’ul muharrir: B.Nazarova - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

*Tahrir hay’ati: B.Rahimov - pedagogika fanlari doktori, professor*

*K.Eshquvatov - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

*G.Berdaliyeva - (PhD) falsafa doktori, dotsent*

*A.Uralov - (PhD)falsafa doktori*

*I.Abduraimov - katta o‘qituvchi*

*N.Yunusmetova – katta o‘qituvchi*

### **Taqrizchilar:**

**A. Uralov** – SVXTXQTMOMH Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasи mudiri, filologiya fanlari doktori (PhD).

**D.O.Himmataliyev** - Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti “Pedagogika va menejment” kafedrasи professori, pedagogika fanlari doktori.

Sirdaryo viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2022-yil 31-martda o‘tkazilgan 3-sonli yig‘ilishining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyigligi hamda mazmuni uchun mualiflar mas’uldir.

© SVXTXQTMOMH, 2022

Ayniqsa boshlang'ich maktablarda o'qituvchi o'z kasbining ustasi, ajoyib notiq, san'atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq egasi bo'lmosi lozim. Fransiya ta'lim tizimlarida maktabdan va sinfdan tashqari muassasalarini ko'zda tutilmagan. Biroq maktablarda, litseylarda turli to'garaklar mayjud. O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish ta'lim inspeksiyasi tashkil qilinganiga endigina 2 yildan oshdi.

O'tgan davr mobaynida inspeksiyaga yuklatilgan vazifalar bajarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni yurtimiz ta'lim sifatini baholash ishlarni joriy etish bo'yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda. Biz ayni damda chet el pedagogikasidagi ilg'or jihatlarini o'zashtirish, yangi- yangi o'quv predmetlarini ta'lim tarkibiga kiritish bilan jahondagi eng ilg'or pedagogikalarinig biriga aylantirish.

Ayni damda AQSH pedagogikasidagi: 1. Bolani o'z kuchi, imkoniyatiga ishonch ruhiyatida tarbiyalash. 2.O'quvchinig eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun kurash 3.Bolani kamsitmaslik, insoniylik qadriyatlarini va g'ururini yerga urmaslik 4.O'quvchini ilk davridanoq kasbga yo'naltirish 5. Vataniga faxr va iftixor ruhi bilan tarbiyalash.

Yaponiya ta'limidagi: 1. Bolani mакtabga puxta tayyorlash 2. Kichkintoylar ta'lim va tarbiyasiga ota-onalar masuliyatini kuchaytirish; 3.O'quvchilarini nafosat jismoniy kamolotiga berilayotgan etibor; 4. O'qituvchi kadrlariga yuksak talabchanlik; 5. Yosh talantlar bilan olib borilayotgan izchil ishlar.

Germaniya ta'limidagi: 1. Tabaqallashtirib o'qitishga kuchli e'tibor; 2.O'quvchilarini mehnat ta'limini mustahkamlash 3. Kasbga yo'naltirish.

Fransiya ta'limidagi: 1. Maktabgacha tarbiyadanoq o'quvni predmetlashtirib tashkil etish; 2. Boshlang'ich ta'limni 3 bosqichda puxta amalga oshirish 3. O'quvni didaktik vositalar bilan ta'minlashga berilayotgasmn katta e'tibor. 4. O'quv muassasalarinig turli firmalar, konsernlar, korxonalar, mustahkam aloqalari va boshqa ibratlji jihatlari bizning ta'limga ham ko'chib bormoqda. Albatta ta'limga har qanday yangilik, o'zgarish, jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi.

O'quvchilarining fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev J.F. Xorijda ta'lim (metodik qo'llanma) - Toshkent: 1995- yil
2. Ikromov A.B., Mxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta'lim, ilm-fan metodik qo'llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
3. G.Anorqulkova, A. Karimov. Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.
4. A.Nosirov. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? -“Boshlang'ich ta'lim” jurnali. 2019- yil. 12- son.
5. R.Ilashova. Amerika mакtablarida.- “Boshlang'ich ta'lim” jurnali. 2019- yil. 3-son.

## INKLYUZIV TA'LIM VA UNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK OMILLARI

J.E.Usarov,

**TVChDPI Pedagogika fakulteti dekanı, pedagogika fanlari doktori**

Sh.X.Kabilova,

**TVChDPI Pedagogika fakulteti, Defektologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti**

M.Boboxonova,

**TVChDPI Pedagogika fakulteti 1-kurs talabasi**

**Annotatsiya:** Kishilik jamiyatni rivojlanib borishi, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, inklyuziv talimni tashkil etishning samaradorligi va bu jarayonda o'qituvchining mas'uliyati, hamda kasbiy kompetentligi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, ta'lim, tarbiya, kompetensiya, inklyuziv, o'qituvchi, ta'lim oluvchi, ijtimoiylashish, moslashish, qo'llab-quvvatlash, dunyoqarash, ehtiyoj, ruhiy olam, erkinlik.

**Annotatsiya:** Bili obsujdeni razvitie chelovecheskogo obshchestva, reformi v sisteme obrazovaniya, effektivnost inklyuzivnogo obrazovaniya i otvetstvennost i professionalnaya kompetentnost pedagogov v etom protsesse.

Klyuchevie slova: globalizatsiya, obrazovanie, vospitanie, kompetentnost, inklyuzivnyi, pedagog, obuchayushiiysya, sotsializatsiya, adaptatsiya, podderjka, mirovozzrenie, potrebnost, duxovniy mir, svoboda.

**Annotation:** The development of human society, reforms in the education system, the effectiveness of inclusive education and the responsibility and professional competence of teachers in this process were discussed.

Keywords: globalization, education, upbringing, competence, inclusive, teacher, learner, socialization, adaptation, support, worldview, need, spiritual world, freedom.

Bugungi kunda globallashuvni ilm-fan tamoyillariga muvofiqlik asosida tashkil etish bu kabi muammolarni bartaraf etishning asosiy omillari sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotchi M.D.Shelkynov nuqtai-nazaricha globallashuv bu - inson hayotining ta'lim tizimi jabhalarini qamrab olgan va axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarining tarqalishi yordam beradigan, inson dunyoqarashni, madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarni hamad hayotiy qadriyatlarini o'zgartiradi. Shuningdek, bilimlar, o'qitish, ma'lumotlar xalqaro tijoratda yangi quvvat manbalari, individual va korporativ boylikning muhim tarkibiy qismidir[5]. Shu nuqtai nazardan, zamonaviylik ko'pincha axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan "bilimlar jamiyat" deb nomlanadi, ammo bu erda vaziyatning ma'lum bir noaniqligi paydo bo'ladi. Bir tomonidan, «bilimga asoslangan jamiyat zamonaviy dunyoning o'zgaruvchan iqtisodiy va siyosiy dinamikasida raqobatbardosh bo'lish va muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan jamiyat turini anglatadi. Bu yuqori ma'lumotga ega bo'lgan jamiyatni anglatadi va shu sababli o'z fuqarolarining bilimlariga tayanib, innovatsiyalarni, tadbirkorlikni va ushbu jamiyat iqtisodiyotining faolligini rag'batlantiradi[1]. Boshqa tomonдан olib qaraydigan bo'lsak ko'plab odamlar ma'lum sharoitlar tufayli o'zlariga bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan bir qator omillar tufayli bilim va ta'lim olish imkoniyati cheklangan.

Bu bir qarashda ko'rinadigan holat emas. Sababi bugungi kunda biz haqiqatni va jarayonlarning haqiqiy holatini yashiradigan va yutib yuboradigan juda katta global qarama-qarshi ma'lumot hamda axborotlar oqimida yashayapmiz. Haqiqatdan ham XXI asr zamonaviy odamlari tez o'zgaruvchan yuqori texnologiyalar va kosmik tezlik, ulkan yutuqlar va kashfiyotlar, firibgarlik hamda paradoksal vaziyatda hayot tarzini boshdan kechirmoqda.

Bu jarayonlarning barchasi inson ruhiy olamining sezilarli darajada charchatib, fikrlar tarqoqligi, qaror qabul qilishda beqarorlikni yuzaga keltirib insoniyatning tanazzulga uchrashiga olib keladi. Har kuni odamlar cheklanmagan rang-barang va bir-biriga ziddiyatli axborotlarni "iste'mol" qilishi aqlidan ozishiga yoki ruhiy og'ishiga ya'ni vasvasalar dunyosiga kirib qolish ehtimolligini borgan sari ortib borishiga olib kelishi mumkin.

J.Xuizinga XXI asrdagi mavjud istiqboldagi vaziyatlarni tahlil qilib, odam "hukm qilish qobiliyatini" yo'qotishi, bu uning asosiy muammoosi ekanligi va qadriyatlariga bo'lgan ishonchi pasayishini ta'kidlaydi. [4].

Shu nuqtai nazardan, "jamoatchilik fikri va istagi" odamni tom ma'noda zanjirga bog'lab, uning erkinligini cheklab qo'yyadi. XXI asrda bu holat odamga nafaqat turli xil, balki ko'pincha qarama-qarshi ma'lumotlar bilan ta'minlaydigan ommaviy axborot vositalarining mutlaqo obstruktiv faoliyati bilan yanada og'irlashadi. Natijada, haqiqat tezda chiqib ketdi va qarama-qarshi ma'lumotlar "yolg'on ong"ni shakllantirdi va inson xotirasidagi ma'lumotlarni mavhumlashtiradi.

Sayyoramizdagi antropologik falokat holati ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, ekologik, sog'liqi saqlashni o'z ichiga olgan bir qator muammolarning globallashuvi bilan og'irlashadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib ta'kidlashimiz mumkinki tabiat insoniyatning katastrofik xususiyatini aks ettirib, o'zi hayot bilan yo'q bo'lib ketish, jo'shqin gullah va qurib qolish o'rtasidagi chegara holatida bo'lib, bularning barchasi insoniyat mavjudligining beqarorligi va inqirozini kuchaytiradi, ijtimoiylashuv va moslashish bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi, insonni jamiyatdan va hatto o'zidan begonalashtiradi.

Bizningchi bugungi kunda inson o'z borlig'ida barqarorlikka ega bo'lishi har doimgidan ham muhimdir. Buning asosiy kafolati insoniyat va uning istiqboliga xizmat qiladigan mukammal ta'lim tizimidir. Ushbu ta'limning bosh va yagona maqsadi o'zini o'zi mustaqil boshqaradigan sog'lom dunyoqarashga ega vatanparvar va fidoiy avlodni tarbiyalash hamda jamiyat istiqboliga safarbar etishdir. Zamonaviy jamiyatda juda ko'p odamlar shiddatli axborotlar oqimi ta'sirida o'zlarining psixofiziologik holatlari bilan bog'liq muammolarga duch kelishadi.

Shu munosabat bilan rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar so'nggi yillarda ijtimoiy faol inklyuziyani joriy etish bilan bog'liq masalalarni ijobiy hal etish borasida maqsadli dasturlarni amalga oshirishni muhokama qilmoqda. Ushbu davlatning ijtimoiy-siyosiy masalalaridan biri bu ta'lim tizimi bo'lib, ushbu jarayonini moslashuvchan tashkil etish va turli xil muammolarga duch kelgan odamlar uchun etarli ta'lim shaklini berishga qodir bo'lgan inklyuziyadir.

Inklyuziv ta'lim muqobili bo'lmagan ijtimoiy amaliyotni tushunishga va targ'ib qilishga harakat qiladigan, munosabatlarni o'rnatadigan, inklyuziv jamiyat g'oyasiga asoslangan ijtimoiy model bo'lib, u madaniy, diniy, etnik, lingistik ozchiliklarga mansub, ijtimoiy xulq-atvorda umumiy qabul qilingan me'yorlarga asoslangandir.

Ta'kidlash lozimki, maxsus va ko'pincha yopiq bo'lgan ta'lim muassasalarida boshqalarning an'anaviy (normal bo'lmagan) ta'lim tizimi "rivojlanishning ijtimoiy holati"ni keltirib chiqarmaydi. Bu jarayon ta'lim oluvchilarning kommunikativ, kognitiv va kasbiy mahoratni rivojlanirmaydi hamda ularni ijtimoiy aloqalardan ajratib qo'yadi. O'z-o'zidan bu yondashuv maxsus ta'lim oluvchilarni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir qilib, oqibatda ularni jamiyatdan begonalashuviga va izolyatsiya qilinishiga hamda umidsizligini yanada oshiradi. Bugungi kun davr talabidan kelib chiqib ta'limni modernizatsiya qilish va inklyuziyaga e'tiborni qaratish lozim. Inklyuziv ta'lim har bir o'quvchi o'zining qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojiga ega bo'lgan noyob shaxs sifatida e'tirof etib, o'quv jarayonida individual yondashuv hamda ushbu xususiyatlarni hisobga o'quv dasturlarini ishlab chiqishda moslashuvchanlikni, shuningdek, o'qituvchidan yuqori kasbiy mahorat, namunali axloq, noziklik, eshitish va tushunish qobiliyati kabi fazilatlarni shakllantirishni talab etadi. Bundan tashqari, inklyuziv ta'lim o'zining qadriyatlar ko'lamini tashkil etib, har bir inson, qobiliyat va yutuqlaridan qat'i nazar, ta'lim olish va bilimlarning maqbul darajasini saqlab qolish, o'zini namoyon qilish huquqiga ega ekanligini ham ta'minlaydi. Shuning uchun inklyuziv ta'limni turi ixtisoslashgan muassasalarda emas, balki umumo'rta ta'limdan tortib OTMlargacha joriy etish lozim. Bu jarayon yosh va kattalarda mehr-oqibat va rahm-shafqat hissini shakllanib qaror topishida hamda boshqalarni tushunish samaradorligini oshiradi, muvaffaqiyatli sotsializatsiyalashuv va o'zini anglashga yordam beradi, jamiyat bilan samarali aloqa hamda kamsitishga qarshi kurash vositasи sifatida ishlaydi.

Inklyuzivlik tufayli ta'lim oluvchining izolyatsiyasi va jamiyatdan begonalashuvi kamayib, o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Inklyuziv ta'limning joriy etilishi ta'lim sohasidagi katta islohot hisoblanib, rang-barang ijodkorlikni rivojlanirish va namoyon bo'lishi uchun ulkan potentsial manba hisobladi. Inklyuziv ta'lim insonparvarlik manbasini o'zida mujassam etgan bo'lib, har bir inson uchun qulay va ta'lim oluvchilarning bir-biriga o'xshamasligi bilan bog'liq to'siqlarni yo'qqa chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim samarali bo'lishi uchun jamiyatda inklyuziv ta'lim siyosati maqsadli va rivojlanuvchi dinamik dastur asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda eng avvalo o'qituvchi-murabbiylarning dunyoqarashini o'zgartirish va professional kasbiy layoqatini oshirish zarur. Sababi o'qituvchi shaxsi inklyuziv ta'limning muhim muammolaridandir. Bunda o'qituvchi yuqori kasbiy madaniyatga, axloqiy barqarorlikka va professional malakaga ega bo'lishi kerak. Bu erda shuni ta'kidlash kerakki, inklyuziv ta'limni joriy etish jarayonida o'zaro o'rganish amalga oshiriladi, ya'ni o'qituvchi tinglevchilarga dars beradi hamda o'zaro axborot va ma'lumot almashinadi. Bunda o'qituvchi faoliyatida samimiyat ustuvor bo'lmog'i lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Agatstsi E. Ideya obshestva, osnovannogo na znaniyax // Voprosi filosofii. – 2012. – №10. – S. 6.
2. Knyazev Ye.N. Tvorcheskoe mishlenie: natyralisticheskoe videnie // Tvorchestvo: epistemologicheskiy analiz. – M.: IF RAN, 2011. – S. 2223.
3. Maslov A. Konfytsiy. Progylki s mydretsom. – Krasnodar: Neoglori, 2010. – S. 307.
4. Pasternak B. «Doktor Jivago». – M.: Martin, 2010. – S. 390.
5. Shelkynov M.D. Obrazovanniy chelovek v globaliziruyushemsya mire. Elektronniy resyrs: [www.congress2008.dialog21.ru/Doklad/23810.htm](http://www.congress2008.dialog21.ru/Doklad/23810.htm).
6. Shemanov A.Yu. Problema formirovaniya inklyuzivnoy obshnosti v izuchenii tvorcheskoy deyatelnosti // Psixologicheskaya nauka i obrazovanie. 2014. Tom 19. № 1. S. 17–25.
7. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 272-274.
8. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency. Theoretical & Applied Science, 53(9), 79-82.
9. Mukhamedov Gafurdjan Isroilovich, & Usarov Djabbar Eshbekovich. (2020). Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 9(3), 2677-2684.
10. Usarov Djabbar Eshkulovich, & Suyarov Kusharbay Tashbaevich. (2020). Developing Pupils' Learning and Research Skills on the Basis of Physical Experiments. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(02), 1337-1346.

### TA'LIMNI TASHKIL ETISHGA NISBATAN INNOVATSION YONDASHUVLAR MAZMUNI

*Altabayeva Dilara Baxtiyarovna  
Guliston shahar 11-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi*

Zamonaviy ta'limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatning predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Uzoq yillar mobaynida qayd etilgan pedagogik kategoriyalar jamiyat ijtimoiy talabi darajasidagi maqsadlarini ro'yogha chiqarish uchun etarli bo'lib kelgan muayyan davrlarda bir guruh pedagoglar tomonidan barcha davrlarda amalga oshirilgan pedagog faoliyatining darajasi qoniqarsiz deb baholaganlar. Ular, xususan, pedagogik tushunchalarga berilgan ta'rif va tavsiflovchi ba'zi kategoriyalarning etishmasligi, ta'lim maqsadi, mazmuni, shakli, uslubi va o'qitish vositalari o'rtasida o'zaro uzviylikning mavjud emasligi kabi holatlarni doimiy ravishda tanqid qilib kelganlar. Ular tomonidan,, metodika" tushunchasi yuqori darajadagi sub'ektivlikka ega ekanligi ta'kidlanadi. Haqiqatda esa ta'lim natijalari o'quvchining pedagogik jarayonlardan muvaffaqiyatli, o'tganligi bilan belgilanadi.

Pedagogik jarayonning mohiyati o'qituvchi hamda o'quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagogik o'qituvchi yuzaga kelgan qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma'lum maqsadga yunaltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi. Pedagogik axborotlarni e'lon qilish, ko'rsatish, eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo'naltirish, xaqqoniylashtirish, kengaytirish, bartaraf etish, hamdardlik qilish, ilhomlantirish, qiziqlishi va hurmatni izxor qilish, talabchanlikni qo'llab-quvvatlash kabi ko'rinishlarda yordam beradi.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – majmuaviy integral tizim bo'lib, unda ta'lim maqsadlari asosida belgilangan ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirish ularda, muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat unsurlarining ma'lum tartibga solingan to'plami sifatida aks etadi. Bu o'rinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?) mazmunini tanlash va ishlab chiqish (nima?) ta'lim jaryonlarini tashkil qilish (qanday?) ta'lim metod va vositalarining belgilanishi (nimalar yordamida?) shuningdek, o'qituvchilarning malaka darajasi (kim?) erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo'l bilan?) inobatga olinishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy tarzda qo'llanilishi o'quv jaryonining mohiyati va texnologiyasini belgilab beradi.